A composite material is a complex system consisting of two or more phases that are bonded through chemical or physical interactions. As a result, the composite exhibits significantly improved mechanical, thermal, and operational properties compared to its individual components.

The advantage of composites is that, unlike conventional metals or polymers, they are designable materials, meaning that their properties can be controlled in advance. Mechanical strength, elasticity, density, resistance to impact and fatigue, thermal conductivity, and corrosion resistance depend on the composition, component ratios, fiber orientation, and manufacturing technology.

Typically, a composite material consists of three main components

1. Matrix: The matrix forms the main volume of the composite material and ensures its overall shape and structural integrity. Its role is not limited to simply binding fibers or particles. The matrix performs several important functions:


combining the reinforcing phase into a unified system;


distributing external loads evenly between fibers;

improving resistance to impact, friction, and environmental influences;

protecting the composite from moisture, aggressive chemical environments, ultraviolet radiation, and corrosion;

slowing down or stopping crack propagation.





Matrices are commonly made of polymers (epoxy, polyester, vinyl ester), metal alloys (aluminum, magnesium, titanium), or ceramics (SiC, Al₂O₃). The matrix type is selected according to operating temperature, mechanical load, and service conditions.

2. Reinforcing Phase

The reinforcing phase is the key element that determines the mechanical strength and stiffness of the composite material. The majority of the applied load is carried by the reinforcement.

Reinforcements may take several forms:

continuous fibers (carbon, glass, aramid);

short fibers (microfibers, chopped fibers);

layered structures (laminates);

particles (SiO₂, Al₂O₃, TiO₂);

nanoparticles (graphene, carbon nanotubes, nano-SiO₂).

In fiber-reinforced composites, high strength is mainly explained by the fact that the elastic modulus and tensile strength of the fibers are significantly higher than those of the matrix.

For example, carbon fiber composites can be several times lighter than steel while demonstrating comparable or even higher strength.

The geometric arrangement of reinforcement is also crucial. If fiber orientation is aligned with the load direction, the composite exhibits maximum performance. Therefore, in layered composites, fibers are often arranged at 0°, 90°, and ±45° orientations.

3. Interface : The interface is the transition zone between the matrix and the reinforcing phase. It directly affects the mechanical stability and long-term performance of the composite material.


The stronger the interface, the more efficiently the external load is transferred to the reinforcing fibers.


If the interface is weak, several problems may occur:

fiber-matrix debonding (delamination);

formation of microcracks;

reduced fatigue resistance;





significant loss of mechanical strength.

Therefore, in practice, fiber surfaces are treated using special techniques such as silane coupling agents, plasma treatment, oxidative treatment, and chemical activation. This process is known as surface modification.

Analytical Section: The main advantage of lightweight and strong composite materials is that their mechanical properties are significantly higher than those of conventional metals or polymers while maintaining lower density.

The scientific reason for this lies in their multiphase structure, where the load-bearing phase (fibers) and the load-distributing phase (matrix) interact effectively. As a result, the strength of composites is not simply the arithmetic sum of the properties of their components but the result of structural synergy.

One of the most important parameters used to evaluate composites is specific strength (σ/ρ) and specific stiffness (E/ρ), where σ is strength, E is elastic modulus, and ρ is density. These parameters explain why composites are widely used in aviation and transportation industries.

For example, carbon fiber–epoxy composites demonstrate higher specific strength than many aluminum alloys while significantly reducing structural weight.


In fiber-reinforced composites, most of the mechanical load is carried by the reinforcing fibers through a mechanism known as load transfer. The matrix distributes loads between fibers, keeps them in position, and partially absorbs external impacts.


However, the overall strength of a composite strongly depends on the quality of the interface between the fiber and the matrix. Weak interfaces lead to delamination, microcracks, and layer separation.

Another key parameter is the fiber volume fraction (V_f). Scientific studies show that increasing fiber volume fraction generally improves tensile strength and elastic modulus. However, excessive fiber content can create porosity due to insufficient matrix, which may increase brittleness and fracture risk. Therefore, the optimal fiber content in high-quality composites is usually 50–65%.

Layer orientation is also important because composites are anisotropic materials, meaning their properties vary with direction. For example, fibers oriented at 0° provide maximum tensile strength in that direction, but strength decreases significantly at 90° .

To achieve balanced properties, laminate structures are often designed using combinations of 0° , 90° , and $\pm 45^\circ$ layers.





Manufacturing defects such as voids, bubbles, delamination, uneven resin distribution, and fiber waviness may significantly reduce composite strength. Porosity increases stress concentration, which can initiate cracks.

Therefore, vacuum infusion, vacuum bagging, and autoclave technologies are widely used to minimize air bubbles and improve structural uniformity.

Crack propagation in composites is more complex than in metals. In composites, several mechanisms may occur simultaneously:

1. matrix microcracking;
 2. interface debonding;
 3. fiber breakage;
 4. delamination;
- fiber pull-out.

For example, aramid fiber composites absorb impact energy effectively due to the fiber pull-out mechanism, which is why Kevlar composites are widely used in bulletproof armor.

Carbon fiber composites exhibit extremely high stiffness and specific strength, but they may be relatively brittle under impact. This problem can be addressed through hybridization with aramid fibers, matrix toughening, or nanomaterial reinforcement.


In recent years, nanomaterials such as graphene, carbon nanotubes, and nano-SiO₂ have been widely used to improve composite mechanical and thermal properties. These nanoparticles act as micro-reinforcements, reducing brittleness and slowing crack propagation.


Environmental factors such as moisture absorption, ultraviolet radiation, temperature cycles, and chemical exposure may degrade the matrix phase and weaken the interface. Therefore, protective coatings or chemically resistant matrices are often used.

In general, the creation of lightweight and strong composites relies on three main scientific principles: high mechanical performance of the reinforcing phase;

effective load distribution and protection provided by the matrix, strong interfacial bonding between phases.

Conclusion: Lightweight and strong composite materials represent a strategic direction in modern engineering and industry. Their development is closely connected with energy efficiency, rational use of resources, and expanded structural capabilities.






The key advantage of composites is their designability, meaning that their mechanical properties can be controlled through fiber type, matrix selection, interface strength, layer orientation, and manufacturing technology.


In the future, the development of composite materials will increasingly involve nanomaterials, biocomposites, recyclable thermoplastic matrices, and smart composites.

Therefore, the creation of lightweight and strong composite materials is not only an engineering task but also an important scientific direction for achieving environmental and economic sustainability.

References

- 1) Agarwal B. D., Broutman L. J., Chandrashekhara K. Analysis and Performance of Fiber Composites. New York: Wiley, 2018.
- 2) Gibson R. F. Principles of Composite Material Mechanics. New York: McGraw-Hill, 2016.
- 3) Kaw A. K. Mechanics of Composite Materials. Boca Raton: CRC Press, 2018.
- 4) Daniel I. M., Ishai O. Engineering Mechanics of Composite Materials. Oxford: Oxford University Press, 2019.
- 5) Strong A. B. Fundamentals of Composites Manufacturing. Dearborn: SME, 2016.
- 6) Peters S. T. Handbook of Composites. London: Springer, 2017.
- 7) Chawla K. K. Composite Materials: Science and Engineering. New York: Springer, 2019.
- 8) Friedrich K., Fakirov S., Zhang Z. Polymer Composites: From Nano- to Macro-Scale. Berlin: Springer, 2015.
- 9) Mouritz A. P. Introduction to Aerospace Materials. Cambridge: Woodhead Publishing, 2018.
- 10) Pickering S. J. Recycling Technologies for Thermoset Composite Materials. Composites Part A, 2018.
- 11) Faruk O., Bledzki A. K., Fink H. P., Sain M. Biocomposites Reinforced with Natural Fibers. Progress in Polymer Science, 2019.
- 12) ISO 14125 — Fiber-reinforced Plastic Composites — Determination of Flexural Properties.
- 13) Gay D., Hoa S. V., Tsai S. W. Composite Materials: Design and Applications. Boca Raton: CRC Press, 2018.
- 14) Callister W. D., Rethwisch D. G. Materials Science and Engineering: An Introduction. New York: Wiley, 2020.





METALL VA QOTISHMALARNING KORROZIYALANISH JARYONINI O'RGANISHGA OID MULOHAZALAR

Eshkarayev U. Ch. - TISU dotsenti,
Choriyeva D. U. - TDPU o'qituvchisi


Annotatsiya. Metall va qotishmalar korroziyasi sanoat, transport, neft-gaz, kimyo va energetika tarmoqlarida resurs yo'qotishlari, avariya xavf va mahsulot ishonchligining pasayishiga sabab bo'ladigan eng dolzarb fizik-kimyoviy muammolardan biridir. Xalqaro baholashlarga ko'ra, korroziyaning jahon iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri qiymati global yalpi ichki mahsulotning taxminan 3,4 foiziga teng bo'lib, amaldagi himoya va boshqaruv choralari to'g'ri qo'llanilganda bu xarajatlarni sezilarli qisqartirish mumkin. Mazkur maqolada metall va qotishmalar korroziyasining nazariy asoslari, uning termodinamik va elektrokimyoviy mexanizmlari, agressiv muhit omillari, shuningdek, O'zbekiston tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar asosida korroziyaga qarshi ingibitorlar va qoplamalarning samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida 2019-2025 yillarda e'lon qilingan mahalliy ilmiy ishlar, avtoreferatlar va sohaviy maqolalarning qiyosiy-analitik tahlili qo'llanildi. Tahlil natijasida korroziyaga qarshi yechimlarning universal emasligi, ularning muhit tarkibi, harorat, pH, xloridlar, H₂S va CO₂ mavjudligi, metall yuzasining mikroqurilishi hamda qotishma fazalarining o'zaro nisbatiga bevosita bog'liqligi asoslandi. Mahalliy tadqiqotlarda St-20 po'lati, neft-gaz muhiti, kislota va tuzli eritmalar uchun ishlab chiqilgan ingibitorlar yuqori himoya darajasini ko'rsatgani, polimer va kompozitsion qoplamalar esa uzoq muddatli barqarorlikni kuchaytirishi aniqlandi. Mualliflik mulohazasi sifatida korroziyaga qarshi samarali strategiya faqat bir vositaga emas, balki material tanlovi, muhitni boshqarish, ingibitorlash, qoplash va monitoringni birlashtirgan integral yondashuvga tayanishi lozimligi ilgari surildi.


Kalit so'zlar: korroziya, metall, qotishma, elektrokimyoviy korroziya, ingibitor, antikorrozion qoplama, St-20, neft-gaz muhiti, agressiv muhit, mahalliy xomashyo.

KIRISH

Metall va qotishmalar insoniyat tsivilizatsiyasining asosiy tayanchlaridan biri bo'lib, ular sanoat, qurilish, transport va energetika sohasida keng qo'llaniladi. Biroq, bu materiallarning eng katta muammolaridan biri - korroziya, ya'ni atrof-muhit bilan kimyoviy yoki elektrokimyoviy reaksiya natijasida ularning buzilishi va xususiyatlarining yomonlashishi.

Korroziya - bu tabiiy jarayon bo'lib, metallar o'zlarining tabiiy holatiga qaytishga intiladi. Jahon tajribasiga ko'ra, korroziya global muammo bo'lib, uning iqtisodiy zararini baholashda NACE International (milliy korroziya muhandislari assotsiatsiyasi) ma'lumotlari asosiy manba hisoblanadi. 2016-yilgi hisobotga ko'ra, korroziya natijasidagi global zarar yiliga 2,5 trillion AQSh dollarini tashkil etadi, bu esa jahon yalpi ichki mahsulotining 3,4 foiziga teng. Bu ko'rsatkich AQShda






YICHning 2,7 foizini, Yevropa Ittifoqida (Shveysariya va Norvegiya bilan birga) 3,8 foizini, Hindistonda 4,2 foizini, Arab davlatlarida 5 foizini, Xitoyda 4,2 foizini, Rossiyada 4 foizini va Yaponiyada 1 foizini tashkil etadi. Ushbu zararlarning 15-35 foizini (375-875 milliard dollar) mavjud korroziyaga qarshi usullarni qo'llash orqali oldini olish mumkin. Masalan, AQShda korroziya zararining 25 foizi infratuzilma bilan bog'liq bo'lib, bu yiliga 8,3 milliard dollarga baholanadi.


Korroziya o'rganishining nazariy asoslari XIX asrda boshlangan bo'lib, M.Faradeyning elektrokimyoviy tajribalari va Evansning galvanik juftliklar haqidagi ishlariga asoslanadi. Zamonaviy qarashlarda korroziya - bu elektrokimyoviy jarayon bo'lib, unda metall anod bo'lib, elektronlarni yo'qotadi va oksidlanadi, katodda esa kislorod yoki boshqa moddalar qaytariladi. Ushbu maqolada korroziya mexanizmlari, turlari, ta'sir etuvchi omillar, nazariyalar va oldini olish usullari batafsil yoritiladi, jahon tajribasi va statistik ma'lumotlar bilan boyitilgan holda.

Darhaqiqat, metall va qotishmalarning xizmat muddatiga ta'sir etuvchi omillar ichida korroziya alohida o'rin tutadi. Bu jarayon oddiy tashqi yemirilish emas, balki metallning muhit bilan termodinamik nomuvofiq holatda bo'lishi natijasida kechadigan ko'p bosqichli fizik-kimyoviy o'zgarishlar majmuasidir. Korroziya oqibatida faqat massa kamayishi yoki sirtning zanglashi emas, balki konstruksiyaning mustahkamlik zahirasining tushishi, payvand choklarining zaiflashishi, mahalliy nuqtaviy yemirilish, interkristallit shikastlanish va funksional nosozliklar yuzaga keladi. Shu bois korroziyani faqat kimyoviy hodisa sifatida emas, balki ishonchlilik, xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlik muammosi sifatida baholash to'g'ri bo'ladi. Xalqaro ma'lumotlar korroziya xarajatlari global YaIMning taxminan 3,4 foiziga tengligini, to'g'ri boshqaruv va profilaktika esa bu yo'qotishlarni 15-35 foizgacha qisqartirishi mumkinligini ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida mazkur muammo ayniqsa neft-gaz, kimyo, transport va mashinasozlik tarmoqlari uchun keskin ahamiyatga ega. Chunki mahalliy sanoat amaliyotida metall konstruksiyalar ko'pincha namlik, minerallashgan suv, kislota muhiti, gaz kondensati, H_2S , CO_2 va xlorid ionlari ishtirokida ishlaydi. Keyingi yillarda mahalliy tadqiqotchilar aynan shu muhitlar uchun mahalliy xomashyo asosida ingibitorlar sintezi, St-20 turidagi po'latlar uchun himoya kompozitsiyalari, neft-gaz uskunalari uchun qoplamalar va polimer tizimlarni ishlab chiqishga katta e'tibor qaratgan. Bu yo'nalishda korroziyaning o'zi emas, balki uning tezligi, himoya qatlami hosil bo'lishi, adsorbsiya mexanizmi va ishchi muhitga mosligi ham tadqiq etilgan.

Adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, mahalliy ishlar asosan uchta yo'nalishga jamlangan. *Birinchi yo'nalish* - mahalliy xomashyo va organik birikmalar asosida ingibitorlar sintezi. *Ikkinchi yo'nalish* - konkret agressiv muhitlarda, xususan HCl , H_2SO_4 , tuzli eritmalar va gazokondensat sharoitida ularning muhofaza samaradorligini baholash. *Uchinchi yo'nalish* - antikorrozion qoplamalar yordamida metall yuzasida barer-adezion himoya qatlamini shakllantirish. Shu bilan birga, korroziya jarayonini metall va qotishmaning tuzilishi, fazaviy birjinsligi, mikroelementlar taqsimoti





va ishlash muhiti bilan bog‘lab kompleks talqin qiluvchi umumlashtiruvchi ishlar nisbatan kam. *Maqolaning ilmiy vazifasi* aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishdan iborat.

Ushbu maqolaning maqsadi metall va qotishmalar korroziyasining asosiy mexanizmlarini sistemalashtirish, O‘zbekiston tadqiqotchilari ishlarida keltirilgan natijalarni qiyosiy baholash va korroziyaga qarshi kurashishning ilmiy asoslangan integral modelini ishlab chiqishga doir mulohazalarni bayon etishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot tahliliy-umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lib, unda 2019-2025 yillarda e‘lon qilingan mahalliy ilmiy maqolalar, sohaviy elektron jurnallar, avtoreferat materiallari va korroziya iqtisodiyoti bo‘yicha avtoritetli manbalar tanlab olindi. Manbalarni tanlashda uchta mezon asosiy deb olindi:

-birinchisi, tadqiqot obyektining metall yoki qotishma korroziyasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligi;


-ikkinchisi, agressiv muhitning aniq ko‘rsatilishi;


-uchinchisi, himoya samaradorligini baholash uchun o‘lchov yoki amaliy xulosaning mavjudligi. Shu asosda mahalliy tadqiqotchilarning ingibitorlar, kompozitsion reagentlar, epoksiuretan qoplamalar va ko‘p komponentli antikorrozion tizimlar haqidagi ishlari saralandi.

Metodologik jihatdan qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, natijalarni sistemalashtirish va manbalar orasidagi umumiy qonuniyatlarni ajratib olish usullaridan foydalanildi. Tahlil birliklari sifatida korroziya tezligi, himoya darajasi, ingibitor konsentratsiyasi, harorat, muhit tarkibi, sirt adsorbsiyasi, qoplama adgeziyasi va ishlatish sohasi qabul qilindi. Bu yondashuvning afzalligi shundaki, turli tadqiqotlardagi ma‘lumotlar bir xil raqamli o‘lchovda bo‘lmasa ham, ulardan amaliy-ilmiy qonuniyatni chiqarish mumkin. Mazkur maqola laborator tajriba protokoli emas, balki e‘lon qilingan natijalarning ilmiy interpretatsiyasi hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Metall va qotishmalar korroziyasining ilmiy mohiyatini tushunish uchun, avvalo, jarayonning tabiatiga aniqlik kiritish lozim. Metall termodinamik nuqtai nazardan ko‘p hollarda o‘zining birikma holatiga nisbatan kamroq barqaror bo‘ladi; shuning uchun namlik, kislorod, kislotalar, tuzlar yoki gaz fazasidagi reaksiya komponentlar ishtirokida u qayta oksidlanishga intiladi. Amalda bu jarayon elektrokimyoviy mexanizm orqali, ya‘ni anod va katod uchastkalari hosil bo‘lishi, elektron almashinuvi va elektrolit ishtirokida kechadi. Biroq korroziya turini muhit belgilab beradi deb o‘ylash yetarli emas; metallning strukturasi, dona chegaralari, qo‘shimcha fazalar, ichki kuchlanishlar va lokal geterogenlik ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aynan shu sababli bir xil muhitda ikki xil qotishma mutlaqo turlicha zanglashi mumkin. Bu yerda asosiy qonuniyat shundaki, qotishma tarkibini “ko‘proq legirlash - har doim yaxshiroq” degan sodda mantiq bilan emas,





passivlanish qobiliyati, fazaviy barqarorlik va ishchi muhit bilan mosligi nuqtai nazaridan baholash kerak.


Mahalliy tadqiqotlarda eng ko‘p uchraydigan obyektlardan biri St-20 po‘lati hisoblanadi. Bu tasodif emas. Neft-gaz, apparatsozlik va texnologik uskunalarda qo‘llaniladigan ushbu material nisbatan arzon, texnologik ishlanishi oson, ammo agressiv muhitlarda korroziyaga moyildir. Shuning uchun mahalliy olimlar asosan unga nisbatan ingibitorlar ta‘sirini o‘rganishgan. Masalan, A.X.Narzullayev va hammualliflar fosfor- va azot-tuvchi ingibitor tarkibini tahlil qilib, uning St-20 metalliga ta‘sirini o‘rgangan; keyingi ishlarida esa suv, neft va gaz kondensati muhitida eruvchan ingibirlovchi sistemalarni sintez qilishga o‘tishgan. Bu yo‘nalishdagi ishlardan ko‘rinadiki, mahalliy xomashyoga tayangan ingibitorlar import reagentlariga muqobil sifatida qarala boshlangan.


O.R.Maxammadiyev, X.S.Beknazarov, A.T.Djalilov va K.U.Sokiyeva ishlari esa korroziyaga qarshi ingibitor samaradorligini nisbatan aniq raqamlar bilan namoyon etadi. Ular mahalliy xomashyo asosida sintez qilingan EFGT-1 va EFGK-1 ingibitorlarini St-20 po‘latida tekshirib, gazokondensat, HCl va H₂SO₄ qatnashgan agressiv muhitda EFGK-1 uchun 92,42%, EFGT-1 uchun 95,03% darajada himoya ta‘siri kuzatilganini ko‘rsatgan. 5% NaCl muhitida ham ushbu ingibitorlar mos ravishda 84,13% va 92,03% himoya effektini saqlab qolgan. Bu raqamlar ikki muhim xulosaga olib keladi: birinchisi, muhit o‘zgarganda samaradorlik ham o‘zgaradi; ikkinchisi, ingibitor tanlashda bir martalik “yuqori foiz” emas, balki turli muhitlar orasidagi barqarorlik muhim.

Shunga yaqin natijalar mahalliy organik ingibitorlar bo‘yicha boshqa tadqiqotlarda ham kuzatiladi. Polietilenpoliamin va krotonov aldegid asosida olingan PKA-1 ingibitori 1M HCl muhitida pastuglerodli po‘lat uchun konsentratsiya ortishi bilan himoya samaradorligini sezilarli kuchaytirgan; jumladan, 301 K da 50 g/l konsentratsiyada 93,65% ingibirlash darajasi qayd etilgan, harorat ko‘tarilganda ham muhofaza ta‘siri saqlangan. Bu natija organik molekulalarning metall sirtiga adsorbsiyalanishi va himoya plyonkasi hosil qilishi korroziyaga qarshi kurashda hali ham eng ratsional yo‘nalishlardan biri ekanini tasdiqlaydi.

Biroq ingibitorlarning o‘zi yetarli emas. Korroziyaning amaliy muammosi shundaki, laboratoriya sharoitida yaxshi chiqqan reagent ishlab chiqarishda harorat tebranishlari, oqim tezligi, mexanik yuvilish, tuz cho‘kmalari, suv-neft interfeysi yoki gaz fazasi ta‘sirida kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shu nuqtai nazardan E.Mashayev va hammualliflarning MEE qator bis-karbamatlarini neftni qayta ishlash uskunalari metalli uchun ingibitor sifatida o‘rgangan ishi diqqatga sazovor. Mualliflar gravimetrik usulda mazkur birikmalarning muhofaza xususiyatini baholab, ularni metall korroziyasi ingibitorlari sifatida taklif qilish mumkinligini ko‘rsatgan. Bu ish metodik jihatdan muhim, chunki unda obyekt sifatida aynan neftni qayta ishlash tarmog‘i uskunalari tanlangan va muhit real ekspluatatsion sharoitga yaqinlashtirilgan.

Korroziyaga qarshi muhofazaning ikkinchi yirik yo‘nalishi - qoplamalar. A.Barkhanadjyan, R.Khakimov, B.Ibragimov, O.Vafayev va D.Ayrapetov ishlarida epoksiuretan asosidagi polimer







qoplama transport texnikasi detallari uchun sinovdan o'tkazilgan. Maqolada qoplamaning yuqori zarba mustahkamligi, yaxshi adgeziyasi va ekspluatatsiya jarayonida barqarorligi qayd etilgan, kuzatuvlar avtomobil ish rejimlarida, 8 ming km dan ortiq yurishda qoplama sezilarli o'zgarish kuzatilmaganini ko'rsatadi. Bu yerda muhim jihat shuki, qoplama korroziyani "to'xtatib qo'ymaydi", balki metall-muhit aloqasini chegaralab, namlik va ionlar diffuziyasini sekinlashtiradi. Shu bois qoplamalarni ingibitorlar bilan raqobatlashtirish emas, balki ularni bir-birini to'ldiruvchi vosita sifatida qarash lozim.

Yangi tadqiqotlar esa muammoning faqat laborator-kimyoviy emas, balki tarmoq kesimida ham qo'yilayotganini ko'rsatadi. 2025-yilda I.N.Xasilov va hammualliflar O'zbekiston gaz konlari quvurlari va uskunalarda korroziyaga ta'sir etuvchi asosiy agressiv omillar sifatida H₂S, CO₂ va xloridlarni alohida ko'rsatib, ingibitorlarni tanlashda laborator va polevoy sinovlarni birlashtirish zarurligini ta'kidlagan. Ular mahalliy xomashyo asosidagi ingibitorlarni neft-gaz sohasida qo'llash, dozalashni optimallashtirish va turli turdagi uskunalarda - quvurlar, separatorlar, issiqlik almashinuvchilar, kompressorlar - uchun differensial yondashuvni taklif qiladi. Bu allaqachon oddiy "reagent sinovi" emas, balki korroziyani boshqarish tizimiga o'tish belgisidir.

Quyida mahalliy tadqiqotlar asosida shakllangan ayrim muhim xulosalar jamlandi.

Mualliflar	Obyekt va muhit	Yondoshuv	Qayd etilgan natija	Ilmiy-amaliy ahamiyati
Narzullayev, Beknazarov, Djalilov	St-20, fosfor-azotli ingibitor muhiti	Ingibitor tarkibi va ta'sirini o'rganish	St-20 uchun maxsus ingibitorlash konsepsiyasi shakllangan	Mahalliy xomashyo asosida himoya reagenti yaratish yo'nalishi mustahkamlangan
Beknazarov, Narzullayev, Niyozkulov	Suv, neft, gaz kondensati	Eruvchan ingibitor sintezi	Neft-gaz muhitiga mos ingibirlovchi tizim taklif qilingan	Real muhitga yaqin modellardan foydalanish ahamiyati oshgan
Maxammadiyev va boshq.	St-20, gazokondensat + HCl + H ₂ SO ₄ ; 5% NaCl	EFGT-1 va EFGK-1 ingibitorlari	Himoya darajasi 84,13-95,03% oralig'ida	Ingibitor samaradorligi muhitga kuchli bog'liq ekani tasdiqlangan







Mashayev va boshq.	Neftni qayta ishlash uskunalari metalli	MEE bis-karbamatlari, gravimetrik baholash	Ingibirlovchi ta'sir ijobiy deb baholangan	Neftni qayta ishlash sohasi uchun yangi organik ingibitorlar perspektiv
Barkhanadjyan va boshq.	Transport texnikasi metall detallari	Epoksiuretan polimer qoplama	Yuqori adgeziya va ekspluatatsion barqarorlik	Qoplama + konstruktiv himoya strategiyasi uchun asos yaratgan
Xasilov va hammualliflar	Gaz konlari quvurlari va uskunalari	Laborator va polevoy baholash, ingibitor tanlash	H ₂ S, CO ₂ , xloridlar asosiy xavf omillari sifatida ajratilgan	Tarmoq kesimida korroziyani boshqarish modeliga o'tish ko'ringan

Ushbu natijalar asosida bir nechta qat'iy mulohaza aytish mumkin. *Birinchi*, korroziyaga qarshi universal ingibitor mavjud emas. Kislotali muhitda yuqori samara bergan modda tuzli yoki gazokondensat muhitida pasayishi mumkin. *Ikkinchi*, metall va qotishmani himoya qilishni faqat reagent yoki qoplama bilan cheklash metodik jihatdan zaif yondashuvdir. *Uchinchi*, qotishmalarda mikroqurilish geterogenligi sababli lokal korroziya xavfi oddiy uglerodli po'latga nisbatan kamayishi ham, aksincha, kuchayishi ham mumkin; demak, legirlash darajasining o'zi yetarli mezon emas. *To'rtinchi*, mahalliy xomashyo asosidagi ingibitorlar iqtisodiy jihatdan jozibador bo'lsa-da, ularni keng joriy qilish uchun termobarqarorlik, toksikologik xavfsizlik, fazaviy moslik va uzoq muddatli ta'sir barqarorligini alohida standartlashtirish kerak. Bu xulosalar mavjud manbalarning sintezidan kelib chiqqan analitik natijadir.

Shu nuqtai nazardan korroziyaga qarshi kurashishning eng oqilona modeli integral modeldir. Unda material tanlovi, muhitni neytrallash yoki barqarorlash, ingibitor dozasi, himoya qoplama, konstruktiv yechimlar va monitoring tizimi bir butun konturda ko'rilishi lozim. Masalan, neft-gaz sohasida korroziya kuponlari, metall ionlari tahlili, pH, harorat, suv miqdori, H₂S va CO₂ konsentratsiyasi kabi ko'rsatkichlarni muntazam kuzatmasdan turib, hatto eng yaxshi ingibitor ham optimal ishlamaydi. Demak, kelajakdagi mahalliy tadqiqotlar faqat ingibirlash foizini emas, balki muhofaza qatlamining mikroqurilishini, SEM/EDS, elektroximik impedans, qutblanish qarshiligi va uzoq muddatli polevoy sinovlar bilan tasdiqlashi maqsadga muvofiq. Amaldagi korroziyani boshqarish choralari jahon miqyosida katta iqtisodiy tejam bera olishi haqidagi baholashlar ham aynan profilaktik, kompleks yondashuvning ustunligini ko'rsatadi.





MUHOKAMA

Fandan ma'lumki, metall va qotishmalar korroziyasi - murakkab jarayon bo'lib, uning o'rganishi nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Global zararlarning 3,4% YICH darajasida bo'lishi, ushbu sohani rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Jahon tajribasi (AQSh, Yevropa) ko'rsatadiki, integratsiyalangan yondashuv (dizayn, material, monitoring) zararlarning 30% ini oldini oladi. Kelajakda nanotexnologiyalar va AI korroziya nazoratini yangi bosqichga olib chiqadi.

Korroziya asosan elektrokimyoviy tabiatga ega bo'lib, unda metall va atrof-muhit o'rtasida redoks-reaksiyalar sodir bo'ladi. Asosiy mexanizm - bu anod va katod jarayonlarining birikmasi. Anodda metall ionlarga aylanishi (oksidlanishi) sodir bo'ladi: $M \rightarrow M^{n+} + n e^-$. Katodda esa, masalan, kislorod qaytarilishi: $O_2 + 4H^+ + 4e^- \rightarrow 2H_2O$. Bu jarayonlarning umumiy energiyasi Gibbs erkin energiyasi (ΔG) bilan baholanadi: $\Delta G = -nFE$, bu yerda n - elektronlar soni, F - Faradey doimiysi (96 485 K/mol), E - hujayra potentsiali. Agar ΔG manfiy bo'lsa, jarayon o'z-o'zidan sodir bo'ladi.

Metallarning korroziyaga moyilligi elektrod potentsiali bilan bog'liq. Standart elektromotor kuchlar seriyasida temir -0,44 V, sink -0,76 V, alyuminiy -1,66 V ga ega bo'lib, ular kislorod (+1,23 V) bilan juftlikda korroziyaga uchraydi. Masalan, temirning kislotali muhitda korroziyasi uchun hujayra potentsiali $E = 0 - (-0,44) = +0,44$ V bo'lib, bu jarayonni ijobiy qiladi.


Kimyoviy korroziya esa, masalan, yuqori haroratlarda (oksidlanish) yoki gaz muhitlarda sodir bo'ladi. Wagner nazariyasiga ko'ra, oksid plyonkalarining o'sishi ionlar diffuziyasi orqali sodir bo'ladi, bu yerda korroziya tezligi plyonka qalinligiga teskari proporsional. Jahon tajribasida, masalan, neft quvurlarida (AQShda yiliga 1,4 milliard dollar zarar) korroziya asosan elektrokimyoviy bo'lib, CO_2 va H_2S ta'sirida kuchayadi.


Aralash potentsial nazariyasi (mixed-potential theory) korroziya tezligini bashorat qiladi - korroziya oqimi I_{corr} anod va katod polarizatsiyasi kesishmasida aniqlanadi. Bu nazariya Evans diagrammalarida tasvirlanadi, unda polarizatsiya egri chiziqlari korroziya tezligini ko'rsatadi. Masalan, zanglamaydigan po'latda (Cr-Ni qotishmasi) passiv plyonka tufayli korroziya tezligi 0,01 mm/yil ga tushadi, oddiy po'latda esa 0,1-1 mm/yil.

Korroziya ko'p turlarga bo'linadi, har biri o'ziga xos mexanizmga ega.

Bir xil korroziya - eng oddiy turi bo'lib, metall yuzasi butunlay bir xilda buziladi. Masalan, temirning atmosfera korroziyasi, bu yerda tezlik 0,025-0,1 mm/yil. Jahon statistikasiga ko'ra, bu tur infratuzilmaning 40 foiz zarari uchun javobgar.

Chuqurlik korroziyasi - mahalliy buzilish bo'lib, xlorid ionlari (Cl^-) passiv plyonkani buzadi. Pitting potentsiali (E_{pit}) - bu kritik qiymat, masalan, alyuminiy uchun -0,7 V. Dengiz muhitida bu tur tez-tez uchraydi, tezligi 1-10 mm/yil ga yetadi.





Stress-korroziya yorilishi - kuchlanish va muhit ta'sirida sodir bo'ladi, uch komponent talab qiladi: *sezgir material, korroziv muhit va kuchlanish*. Masalan, 7xxx seriyali alyuminiy qotishmalarida (aerokosmik sanoatda) SCC tezligi 10^{-6} mm/s ga yetadi.

Galvanik korroziya - ikki turli metallning juftligida sodir bo'ladi, masalan, po'lat va mis. Galvanik seriyaga ko'ra, anod katodni himoya qiladi. AQSh dengiz flotida bu tur yiliga 500 million dollar zarar keltiradi.

Intergranular korroziya - donalar chegarasida, masalan, zanglamaydigan po'latda karbidlar cho'kishi tufayli. Bu tur yadro reaktorlarida muhim, tezligi 0,5 mm/yil.

Erozion korroziya - mexanik ta'sir bilan birga, masalan, quvurlarda. Kritik tezlik - 1-3 m/s. Dengiz muhitida bu tur 30 foiz zararga sabab bo'ladi.

Mikrobiologik korroziya - bakteriyalar ta'sirida, neft quvurlarida yiliga 20 foiz zarar.

Dezinkifikatsiya - guruchda sinkning tanlab chiqishi, qizil rangli qatlam hosil qiladi.

Grafitik korroziya - quyma temirda grafit qoladi, metall buziladi.

Korroziya tezligiga muhit, material va sharoitlar ta'sir qiladi. Muhitda pH 4-10 oralig'ida korroziya minimal, lekin xloridlar pittingni kuchaytiradi. Harorat oshishi tezlikni 2 marta oshiradi har 10°C ga.

Material omillari - legirlash (Cr, Ni) passivlikni oshiradi, masalan, 304 po'latda 18% Cr korroziya tezligini 100 marta kamaytiradi. Jahon tajribasida, alyuminiy qotishmalarida T6 issiqlik ishlovi SCC ni kuchaytiradi, T73 esa kamaytiradi.

Ekologik omillar - shahar muhitida SO_2 (0,1-1 ppm) korroziyani 2-3 marta oshiradi. Dengiz muhitida (Yevropa sohillarida) po'lat korroziyasi 0,2 mm/yil.


Pourbaix diagrammalari (potensial-pH diagrammalari) korroziya hududlarini ko'rsatadi: *immunitet, korroziya, passivlik*. Masalan, temir uchun pH 9-14 da passiv, lekin Cl^- bilan pitting. Bu diagrammalar Evans va Pourbaix tomonidan ishlab chiqilgan, korroziya bashoratini 80% aniqlikda beradi.


Punkt defekt modeli - passiv plyonka buzilishini vakansiyalar orqali tushuntiradi, Cl^- ionlari plyonkani zaiflashtiradi. Stress-korroziya uchun film yorilish modeli va vodorod embrittlement nazariyasi mavjud: birinchisida anod erishi, ikkinchisida H atomlari materialni zaiflashtiradi.

Jahon qarashlarida, ekologik inhibitorlar 91,7% samaradorlikka ega. AI modellar korroziya tezligini bashorat qiladi, masalan, mashina o'rganishi orqali 95% aniqlik.

XULOSA

Metall va qotishmalar korroziyasi - bir vaqtning o'zida termodinamik, elektrokimyoviy, texnologik va iqtisodiy tabiatga ega bo'lgan murakkab jarayondir. Uning intensivligi faqat tashqi muhitga emas, balki metallning mikroqurilishi, fazaviy tarkibi, yuza holati va ishlash rejimiga ham bog'liq. O'zbekiston tadqiqotchilari ishlari shuni ko'rsatadiki, mahalliy xomashyo asosida sintez qilingan ingibitorlar, organik kompozitsiyalar va polimer qoplamalar St-20 kabi materiallar hamda







neft-gaz sohasi uskunalari uchun jiddiy amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, ayrim ingibitorlar uchun 84-95% atrofidagi muhofaza darajasi qayd etilgani bu yo‘nalishning ilmiy salohiyatini tasdiqlaydi. Biroq bu natijalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri universal yechim sifatida qabul qilish xato bo‘ladi, chunki har bir muhit va har bir material kombinatsiyasi alohida tekshiruvni talab qiladi. Shu sababli korroziyaga qarshi kurashda eng to‘g‘ri strategiya ingibitor, qoplama, konstruktiv chora va monitoringni birlashtirgan tizimli yondashuv hisoblanadi. Ilmiy nuqtai nazardan esa kelgusi tadqiqotlar mahalliy reagentlarning mexanizmlarini chuqurroq ochishi, qotishmalarning lokal korroziyaga moyil zonalarini mikroanaliz usullari bilan baholashi va natijalarni uzoq muddatli sanoat sinovlari bilan mustahkamlashi lozim. Ana shundagina metall va qotishmalar korroziyasini o‘rganish nazariy masala emas, balki texnologik xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladigan aniq amaliy fan darajasiga ko‘tariladi.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Холиқов А. Физико-химические свойства многокомпонентных ингибиторов коррозии металлов и антикоррозионных покрытий. - Каталог авторефератов. - 2023. - № 1.
2. Нарзуллаев А.Х., Бекназаров Х.С., Джалилов А.Т. Изучение состава фосфор-, азотсодержащего ингибитора коррозии ИК-ДУА-КА-1 и влияние его на металл Ст-20 // *Universum: химия и биология: электрон. научн. журн.* - 2019. - № 11 (68).
3. Бекназаров Х.С., Нарзуллаев А.Х., Ниёзкулов Ш.Ш. Синтез растворимой ингибирующей коррозии в воде, нефти, газовом конденсате, содержащем аминокислоты, и изучение влияния алюминия на металл // *Universum: технические науки: электрон. научн. журн.* - 2020. - № 6 (75).
4. Абдукаримов М.М., Ёдгаров Н., Бекназаров Х.С., Джалилов А.Т. Антикоррозионные свойства модифицированной госсиполовой смолы и его композиционных покрытий // *Universum: технические науки: электрон. научн. журн.* - 2020. - № 7 (76).
5. Махаммадиев О.Р., Бекназаров Х.С., Джалилов А.Т., Сокиева К.У. Изучение влияния ингибиторов коррозии ЭФГТ-1 и ЭФГК-1 на металл Ст-20 // *Научный вестник НамГУ.* - 2021. - № 10. - С. 51-56.
6. Barkhanadjyan A., Khakimov R., Ibragimov B., Vafayev O., Ayrapetov D. Anti-corrosion protection of metal parts of transportation equipment with a polymer coating based on epoxyurethane // *Chemistry and Chemical Engineering.* - 2021. - Vol. 2021. - No. 3. - Article 8. - DOI: 10.51348/AMIW3430.
7. Mashayev E., Mukhiddinov B., Kongratbayeva T., Jovliyeva N. Application of BIS-Carbamates of the MEE Series as Corrosion Inhibitors of Metal Equipment of Oil Refineries // *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture.* - 2023. - Vol. 1. - No. 10. - P. 57-59.





8. Рахимов Х.Ю., Абдурахманова С.П., Ганиева Х.Б., Тожимаматов Ш.Ш., Билалова Д.Ж. Исследование антикоррозионных свойств разработанных композиционных химических реагентов для защиты нефтегазового оборудования от кислотной коррозии и агрессивных сред // Композиционные материалы. - 2023. - № 4.
9. Хасилов И.Н., Файзуллаева М.А. Исследование эффективности ингибиторов коррозии для защиты трубопроводов газовых месторождений Узбекистана // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. - 2025. - 2(131).
10. Хасилов И.Н., Маматова Ф.К. Современные ингибиторы коррозии для защиты оборудования газовых промыслов Узбекистана // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. - 2025. - 3(132).
11. Хасилов И.Н., Маматова Ф.К. Повышение долговечности оборудования газовых месторождений Узбекистана с помощью ингибиторов коррозии // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. - 2025. - 3(132).





KANAKUNJUT O`SIMLIGINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI

Ro`ziyeva Gulsara Temirqulovna

Ruziyeva.gulsara@gmail.com

Eshmamatova Mo`tabar Jo`raqobilovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Tibbiyot fakulteti

ANNOTATSIYA


Ushbu maqolada kanakunjut o`simligi fiziologiyasi dorivorlik xususiyati haqida ma`lumot keltirilgan. Kanakunjut qadimda ma`lum bo`lga o`simlik. Ma`lumotlarga ko`ra kanakunjut o`simligi hozirda ham turli joylarda yovvoyi holda o`sadi. Har-xil tuproq- iqlim sharoitida o`sgani tufayli kanakunjutning xilma xil shakllarda tarqalgan va O`zbekistonda mavjud. Kanakunjut (*Ricinus*) sutlamadoshlar oilasiga mansub bo`lib ko`p yillik o`simlik, asosan, moy olish uchun ekiladigan ekin. Kanakunjutning o`q ildiz tizimi mavjud bo`lib ildizi tuproqqa 2-4 m gacha kirib boradi. Poyasi o`tsimon, ichi kovak, tik o`sadi. Balandligi o`z vatanida ya`ni (tropic mintaqalarda) 6-10 m gacha, O`zbekistonda 2-3 m. Palmaga o`xshab tez o`suvchi manzarali o`simlik sifatida o`stiriladi. Poyasi shoxlanadi. Rangli barglari yirik, qalqonsimon, uzun bandli (25-60 sm), bo`laklarga bo`lingan. Guli mayda, yashil, gulto`plami shingil, shakli ponasimon, 5 ta gulto`plamdan iborat. Gul to`plami uchki qismida urg`ochi gullar, yuqori qismida urg`ochi gullar, pastki qismida erkak gullari joylashadi. To`pguli uzun 10-30 sm, ba`zan 70 sm ga boradi. Mevasi- uch uyali ko`sakcha. Ayrim poyalarda ko`sakchalar yetilganda chatnaydi. Urug`i -tuxumsimon, yirik, 1000 ta urug`i vazni 150-500 g, tarkibida 40-57% moy mavjud. Kanakunjut issiqsevar, yorug`sevar, namsevar o`simlik unumdor yerlarda yaxshi o`sadi.


KALIT SO`ZLAR: o`shish davri, urug`i, moy, iqlim, fiziologiyasi, don, sutlamadoshlar, dorivorligi, kanakunjut zaralari, macrocarpus, microcarpus, comminus.

KIRISH.

Kanakunjut (*Ricinus*) ning 3- turi uchraydi. Ulardan, mayda urug`li – *Ricinus macrocarpus* G. pop.; Zanzibar kanakunjuti [*Ricinus zanzibarinus* G. Pop. (*Ricinus . Communis*)] Misrda mil.av 2-ming yillikdan ekila boshlagan. Vatani –

Shimoliy – Sharqiy Afrika. Jahondagi ko`pgina mamlakatlar dehqonchiligida ikki, uch yillik yoki bir yillik ekin tarzida o`stiriladi. O`zbekistonning sug`oriladigan mintaqalarida bir yillik ekin sifatida ekiladi. Kanakunjutning ekilgan maydonlar jahon bo`yicha 1280 ming ga, o`rtacha hosildorlik 10,49 s/ga ni tashkil etadi (1999yil) O`zbekistonning sug`oriladigan yerlarida hosildorligi 20-25s/ga yetgan.





Kanakunjutning o`shish davri 120-150 kunni tashkil qiladi. Moyi qurimaydigan (yod soni 82-86) guruhiga kiradi . (-10C dan -18 C da qotadi) , tabobatda Kanakunjut moyi , parfumeriyada , lok-bo`yoq sanoatida , sovun tayyorlashda , teri va to`qimachilik sanoatlarida ishlatiladi . Kunjarasi zaharli (ritsinin alkaloidi bor) , o`g`it hamda yelim ishlab chiqarishda ishlatiladi . Kanakunjut kuzgi don , dukkakli don , makkajo`xori ekinlaridan bo`shagan yerlarga ekiladi .



Kanakunjut Issiq iqlimda (20-30C da) haroratda yaxshi o`sadi .Uni yengil va o`rtacha nam tuproqqa , suv to`plamaydigan yerlar (sho`rlanmagan , botqoqlanmagan) ekiladi.

Kanakunjut bahorda tuproq harorati (12-15C) ga ekiladi. Urug`I 2-3 sm chuqurlikka sepiladi 1 gektarga 5-8 kg urug` ekiladi.Uni me`yoridan ortiq


Sug`orish ko`p suv qo`yish zarar qiladi uni nobud bo`lishiga sabab bo`ladi.


Kanakunjutning foydalari.

Kanakunjutda 40-50 % moy mavjud. Kanakunjut moyi meditsinada eng yaxshi surgı dori sifatida ishlatiladi. Ginekologik ko`z kasalliklarda , yaralarni, tanada kuygan terini, leyshmanioz, va boshqa teri kasalliklarini davolashda , sochni o`stiruvchi modda sifatida ishlatiladi. Surtma dorilar va elastic kollodiy tarkibiga kiradi . Xitoyda oziq -ovqatga xam qo`shiladi.

Kanakunjut (kamfora) moyidan bir -ikki tomchi quloqqa tomizilsa , og`riqni yo`qotib quloqqa kirgan hasharotlarni yo`qotadi.

Tanangizda yaralar bo`lsa , kanakunjut yog`ini surting , yaradan xalos bo`lasiz .Shamollaganda yoki bronxit bilan og`riganda 1 osh qoshiq skipidar va 2 oshqoshiq kanakunjut yog`i aralashtirilib , ko`krakka yengil surtilgach , issiq mato bilan o`ralsa tuzalishi tezlashadi .







Kanakunjutning zararli hususiyatlari.

Kanakunjutning urug`lari zaharli hisoblanadi. Urug`lari ko`p iste`mol qilinsa toksik ta`sir ko`rsatishi mumkin . Toksik ta`sir ko`rsatish bu organizmlarga zarali yoki zaharli moddalar ta`sir qilishi natijasida yuzaga keladigan salbiy fiziologik o`zgarishdir. Kanakunjut urug`idan zararlangan kishida ich ketishi , ko`ngil aynishi, darmonsizlik kabi holatlar kuzatiladi. Urug`i tarkibidagi zaxarli moddalar ta`sirida bosh og`rishi ,aylanishi va muvozanat saqlashda qiyinchilik yuzaga keladi. Zaharlanishda keyin ko`pincha uyquning buzilishi uyqusizlik kuzatiladi.Bu esa umumiy charchoq va kuchsizliklar kelib chiqadi . Jiddiy zaharlanish natijasida jigar va buyrak faoliyati buzilishi mumkin . Kanakunjut zahari juda tez ta`sir qiladi, masalan bir daqiqa yoki bir soat ichida teri toshishi , qichishishi va nafas olishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi kuzatiladi.24 soat ichida kuzatiladigan holatlar: bosh og`rishi, aylanishi , uyqusizlik va umumiy charchoq.Ba`zi hollarda kuchli zaharlanganda bu zaharlanish jigar, buyraklarga jiddiy ta`sir qilsa bu alomatlar bir necha kun yoki hafta ichida namoyon bo`ladi.


Foydalanilgan adabiyotlar


1. Otaboyeva H.N O`simlikshunoslik . Toshkent 2000.





2. O`z .Me birinchi jild. Toshkent 2000.
3. Vikipediya
4. Prator O`. Shamsuvaliyeva. Sulaymonov E, Axunov X, Ibodov K, Mahmudov V. Botanika Toshkent
5. Botamika (darslik) 2017-y





YASHIL IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIKKA ERISHISH YO'LLARI.

Xaydarova Shoxista Davranovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

khaydarova.tues@gmail.com

0009-0000-7870-9130 Orcid

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik barqarorlikka erishishning asosiy yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston hududlarida atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida o'rganilib, ekologik muammolarni kamaytirishning iqtisodiy va institutsional mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda yashil texnologiyalarni joriy etishning ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish va ekologik muhitni yaxshilash bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, resurslarni tejash, qayta tiklanadigan energiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi, kam uglerodli texnologiyalar, energiya, samaradorligi, barqaror ishlab chiqarish, suv va energiya resurslari, chiqindilarni kamaytirish.

ОСНОВНЫЕ ПУТИ ДОСТИЖЕНИЯ ЗЕЛеноЙ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ

Хайдарова Шохиста Даврановна


Преподаватель кафедры экономики


Термизский университет экономики и сервиса

khaydarova.tues@gmail.com

Orcid: 0009-0000-7870-9130

Аннотация: В данной статье научно проанализированы основные направления достижения экологической устойчивости в условиях зеленой экономики. В исследовании на основе статистических данных изучена динамика выбросов загрязняющих веществ в атмосферу по регионам Узбекистана, а также рассмотрены экономические и институциональные механизмы снижения экологических проблем. Обоснована роль повышения энергоэффективности, расширения использования возобновляемых источников энергии и внедрения зеленых технологий в обеспечении экологической устойчивости.





Результаты исследования могут способствовать разработке научных выводов по внедрению принципов зеленой экономики и улучшению экологической среды.

Ключевые слова: Зелёная экономика, экологическая устойчивость, экономия ресурсов, возобновляемая энергия, охрана окружающей среды, изменение климата, низкоуглеродные технологии, энергоэффективность, устойчивое производство, водные и энергетические ресурсы, сокращение отходов.

KEY PATHWAYS TO ACHIEVING A GREEN ECONOMY AND ENVIRONMENTAL SUSTAINABILITY

Shoxista Davranovna Xaydarova

Lecturer, Department of Economics

Termiz University of Economics and Service

[*khaydarova.tues@gmail.com*](mailto:khaydarova.tues@gmail.com)

Orcid: 0009-0000-7870-9130


Mavzuning yana bir zamonaviy qirrasini vositalariga chidamlilik muammosi bilan bogʻliq. Soʻnggi ilmiy maqolalarda dipikolin kislotasi va uning analoglari metallo- β -laktamaza fermentlarining faol markazidagi Zn(II) bilan kelat hosil qilishi orqali ularning funksiyasini susaytirishi mumkinligi koʻrsatilgan. Bu esa dipikolinat kimyosining biologik va farmatsevtik istiqbollari kengaytiradi. Garchi mazkur maqola asosan 3d-metall komplekslari sintezi va qoʻllanishiga bogʻlangan boʻlsa-da, dipikolinat ligandining metallga nisbatan yuqori affiniteti biometall tizimlar bilan ishlashda ham ahamiyatga ega. Shunday qilib, mazkur mavzu klassik noorganik kimyo doirasidan chiqib, materialshunoslik, ekologiya, bioorganik kimyo va amaliy texnologiyalar bilan tutashadi.


Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur maqola eksperimental laboratoriya ishi emas, balki tizimli ilmiy-adabiy tahlil shaklida bajarildi. Manbalar sifatida birlamchi ilmiy maqolalar, PubChem maʼlumotnomasi, ochiq kirishdagi tibbiy va kimyoviy maqolalar, MOF va korroziya boʻyicha sharhlar, shuningdek oʻzbek tilidagi noorganik hamda koordinatsion kimyo manbalari tanlandi. Tanlash mezonlari uchta boʻldi: birinchidan, manbaning mavzuga bevosita aloqadorligi; ikkinchidan, unda 2,6-piridindikarbon kislotasi yoki dipikolinat ligandining aniq koʻrsatilishi;

uchinchidan, materialda sintez, strukturaviy tavsif yoki qoʻllanish boʻyicha foydalanish mumkin boʻlgan ilmiy dalilning mavjudligi.

Tahlil bir necha bosqichda olib borildi. Avval ligandning tuzilishi va koordinatsion tabiatiga oid umumiy maʼlumotlar yigʻildi. Keyin Cr, Mn, Fe, Co, Ni, Cu va Zn kabi 3d-metallarga tegishli manbalar alohida guruhlariga ajratildi. Soʻng komplekslar hosil boʻlish usullari eritmada sintez, sekin kristallantirish, gidrotermal yondashuv, yordamchi ligandlar bilan aralash-ligandli komplekslashish va polimerizatsion koordinatsiya kabi kategoriyalarga boʻlindi. Oxirida qoʻllanish yoʻnalishlari sensorika, korroziya inhibitsiyasi, kataliz, biologik faollik va MOF-materiallar kabi bloklarga ajratilib, qiyosiy jadval ishlab chiqildi.

Statistik tahlil uchun koʻrib chiqilgan asosiy xalqaro manbalar funksional yoʻnalish boʻyicha kodlandi. Masalan, bir maqolada kompleks elektroximik sensor sifatida taklif etilgan boʻlsa “sensor”, antimikrob va antioksidant faollik oʻrganilgan boʻlsa “biologik”, korroziyani kamaytirish maqsadida sinov oʻtkazilgan boʻlsa “korroziya”, koordinatsion karkas va adsorbsiya yoki fotokataliz bilan bogʻliq tizimlar “MOF/material”, reaksiya tezlashuvi yoki polimerizatsiyaga taʼsir etsa “kataliz” toifasiga kiritildi. Ushbu usul laboratoriya statistikasi emas, balki adabiyotlar korpusining





mazmuniy-statistik tahlili bo‘lib, mavzudagi ilmiy urg‘ular qaysi tomonga ko‘proq siljiyotganini ko‘rsatish uchun ishlatildi.


Strukturaviy tahlilda klassik koordinatsion kimyo tamoyillariga tayandik. Ya’ni markaziy ionning zaryadi, radiusi, ligandning deprotonatsiya darajasi, dentatligi, yordamchi ligandlarning mavjudligi va sintez muhitining pH ko‘rsatkichi kompleks geometriyasi va barqarorligiga qanday ta’sir qilishi talqin qilindi. O‘zbek kimyo manbalarida ham koordinatsion son, geometriya va barqarorlik asosiy nazariy ko‘rsatkichlar sifatida berilgani uchun ushbu tahlil usuli mavzuga metodik jihatdan mos keladi.

Natijalar va muhokama: 2,6-piridindikarbon kislotasining 3d-metallar bilan kompleks hosil qilishdagi eng asosiy afzalligi uning bir vaqtning o‘zida uchta donor markazni taklif qila olishidir. Piridin halqasidagi azot atomi va ikkita karboksilat kislorodi metallga meridional joylashuvchi tridentat ligand sifatida ulanadi. Ammo real sistemalarda u doimo bir xil tarzda tutmaydi. Ayrim hollarda bir karboksilat guruh monodentat, ikkinchisi ko‘priksimon bo‘lib qatnashadi; ayrim hollarda yordamchi ligandlar tufayli dipikolinat faqat qisman koordinatsiyalanadi. Ana shu koordinatsion plastiklik 3d-metallar bilan juda xilma-xil tuzilmalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu komplekslarning geometriyasi odatda oktaedrik yoki distorsiyalangan oktaedrik bo‘lsa, polimer tizimlarda 1D, 2D va 3D tarmoqlar ham shakllanishi mumkin.

Cr(III) komplekslari odatda yuqori zaryadli va kinetik inert markaz sifatida ajralib turadi. Shuning uchun xromning dipikolinatli komplekslari ko‘pincha barqaror, nisbatan sekin almashuvchi koordinatsion sferaga ega bo‘ladi. 2023-yilda xrom(III) va kobalt(II) asosida dipikolinat va boshqa N,O-donor ligandlar bilan olingan yangi komplekslarning katalitik xossalari ko‘rib chiqilgan. 2024-yilgi tadqiqotda esa Cr(III) va Fe(III) ning 2,6-pyridinedicarboxylic acid bilan komplekslari sintez qilinib, karbonli po‘lat korroziyasiga qarshi ta’siri tekshirilgan. Bunday sistemalarda xrom markazining roli ikki tomonlama: birinchidan, barqaror kelat tuzilma hosil qiladi; ikkinchidan, metall sirtida adsorbsiya uchun qulay koordinatsion fragment yaratadi. Bu korroziya inhibitsiyasi uchun muhim, chunki inhibitorning samarasi faqat eritmadagi barqarorlikka emas, balki sirtga mahkamlanish va himoya qatlami hosil qilish qobiliyatiga ham bog‘liq.

Fe(III) va Fe(II) sistemalari dipikolinat kimyosida alohida o‘rin tutadi, chunki temir redoks-faol markaz hisoblanadi. Temir bilan dipikolinat komplekslari strukturaviy, elektroximik va kelatlanish nuqtai nazaridan ancha oldinlardan o‘rganilgan. DFT asosidagi tadqiqotlarda hidratlangan Fe²⁺ bilan dipikolin kislotasi orasidagi ehtimoliy komplekslar modellashtirilgan. Bundan tashqari, Fe(III)-dipikolinat komplekslari korroziya inhibitsiyasi yo‘nalishida ham taklif etilgan. Temir komplekslarining ahamiyati shundaki, ular biologik tizimlarga yaqin metall markazni






beradi, shu bilan birga elektroximik va sirt hodisalarida faol qatnashadi. Shu sababli Fe-dipikolinat tizimlari analitik kimyo, sirt kimyosi va bioanorganik modellash uchun foydalidir.


Mn(II) bilan hosil boʻladigan komplekslar koʻpincha labilroq boʻlishi bilan ajraladi, shu bois ular biologik muhitlarga yaqinroq xulq koʻrsatishi mumkin. Mn(II) va Zn(II) bilan dipikolin kislotasi asosida olingan supramolekulyar birikmalar boʻyicha 2009-yilgi tadqiqot biologik faollik istiqbolini koʻrsatgan. 2018-yilda esa geterosiklik yordamchi ligandlar ishtirokidagi marganets komplekslari sitotoksik xususiyatlar bilan bogʻliq holda koʻrib chiqilgan. Marganets dipikolinat komplekslarining ilmiy qiymati koʻpincha ularning koordinatsion muhiti oʻzgarganda biologik javob ham oʻzgarishi bilan belgilanadi. Bu yerda asosiy narsa metallning oʻzi emas, balki butun “metall-ligand-ikkinchi ligand” arxitekturasi hisoblanadi. Shu jihatdan Mn(II) komplekslari xossalarning nozik modulyatsiyasi uchun qulay model boʻlib xizmat qiladi.

Co(II) tizimlari 2,6-piridindikarbonatli komplekslar orasida ayniqsa qiziqarli, chunki kobalt redoks jarayonlarda faol, geometriyaga sezgir va koordinatsion polimerlar hosil qilishga moyildir. 2017-yilda kobalt-2,6-pyridinedicarboxylate MOF sintez qilinishi, u elektroximik sensing uchun istiqbolli material sifatida tavsiflangan. Bu natija mavzu uchun juda muhim, chunki dipikolinat ligandining planarligi va koʻprik hosil qilishi kobalt markazlari orasida oʻtkazuvchan yoki sezgir tarmoqlar shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, 2007-yildagi tadqiqotlarda kobalt dipikolinat komplekslari nikotinamid va dietilentriamin kabi yordamchi ligandlar bilan kristall arxitektura hosil qilishi koʻrsatilgan. Demak, Co(II) bilan ishlaganda 2,6-piridindikarbon kislotasi oddiy kelatlovchi emas, balki funksional karkas quruvchi ligand rolini ham bajaradi.

Ni(II) komplekslari haqida 2025-yilda ellik yillik yutuqlarni umumlashtirgan sharh eʼlon qilingan. Bu sharhning oʻziyoq nikel-dipikolinat kimyosi mustaqil va yetuk yoʻnalishga aylanganini bildiradi. Nikel markazining d8 konfiguratsiyasi, koʻpincha oktaedrik yoki kvadrat-planar koordinatsiyaga moyilligi, dipikolinat bilan birga turli magnit, katalitik va strukturaviy xossalarning paydo boʻlishiga olib keladi. Garchi mazkur maqolada nikelga oid birlamchi sinov misollari boshqalarga qaraganda kamroq tahlil qilinayotgan boʻlsa-da, nikel sistemalari muhim ilmiy xulosa beradi: 2,6-piridindikarbon kislotasi bilan hosil boʻladigan komplekslar alohida bir metallga xos hodisa emas, balki butun 3d-qator boʻylab barqaror koordinatsion platforma sifatida ishlaydi.

Cu(II) komplekslari esa ushbu ligand bilan eng koʻp funksional natija beradigan sistemalar sirasiga kiradi. Mis(II) ionining Jahn–Teller taʼsiriga moyilligi, redoks xatti-harakati va biologik faolligi tufayli Cu-dipikolinat birikmalar sensorika, biologik skrining va antimikrob yoʻnalishida keng oʻrganilgan. 2024-yilgi maqolada bir nechta Cu(II)-pyridine-2,6-dicarboxylate komplekslari Hg(II) sensing bilan birga antibakterial va antioksidant xususiyatlar boʻyicha baholangan. Yana







boshqa tadqiqotlarda dipikolinatli mis komplekslari va MOF-ga o'xshash tizimlar gidrogel kompozitlari tarkibida antibakterial material sifatida taklif etilgan. Bu natijalar Cu(II) sistemalarida ikki asosiy ustunlik borligini ko'rsatadi: birinchisi sezgir analitik javob, ikkinchisi biologik faol muhit bilan o'zaro ta'sir.

Zn(II) komplekslari diamagnet bo'lgani uchun ko'pincha struktura aniqlash, biologik faollik va MOF-materiallar yaratishda qulay hisoblanadi. Zn(II) bilan dipikolin kislota asosidagi tizimlar antimikrob xossalarga ega materiallar sifatida tavsiflangan, MOF sharhlarida ham Zn va 2,6-pyridinedicarboxylic acid kombinatsiyasi istiqbolli materiallar qatorida tilga olinadi. Ruxning biologik tizimlar bilan nisbatan mosligi, redoks jihatdan inertligi va koordinatsion moslashuvchanligi uni farmatsevtik va biomaterial yo'nalishlari uchun qulay qiladi. Zn(II) kompleksi ko'pincha "biologik xavfsizroq model metall" sifatida qaraladi, shu bois dipikolinat ligandining biologik rollarini ajratib ko'rishda foydali sistema sanaladi.

Komplekslarni olish usullariga kelsak, adabiyotlar tahlili bir nechta asosiy strategiyani ko'rsatadi. Eng sodda yo'l metall tuzi va 2,6-piridindikarbon kislotasini eritmada muvofiq mol nisbatda aralashtirib, pH ni asos yoki tampon bilan boshqarishdan iborat. Karboksil guruhlarining deprotonatsiyasi metallga koordinatsiyani kuchaytiradi, ammo juda yuqori pH metall gidroksidlar cho'kmasiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ko'plab tizimlarda pH nazorati hal qiluvchi omil bo'ladi. Ikkinchi strategiya sekin bug'latish va kristallantirish bo'lib, u monokristallar olishga qulay. Uchinchi yondashuv gidrotermal yoki solvotermal sintez bo'lib, ayniqsa koordinatsion polimer va MOF-larda samarali. To'rtinchi usul yordamchi N-donor yoki O-donor ligandlarni qo'shib, aralashligandli komplekslar yaratishdir. Aynan shu yo'l bilan biologik faollik, katalitik selektivlik yoki kristall tarmoqning gözenekliligi boshqariladi.

Sintez jarayonida metallning tabiatiga qarab muhim farqlar kuzatiladi. Cr(III) va Fe(III) kabi yuqori zaryadli ionlar kuchliroq koordinatsion tortishuv beradi, natijada nisbatan barqaror va kamroq labil komplekslar shakllanadi. Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) tizimlarida esa erituvchi tabiati, yordamchi ligandlar va harorat kristall tuzilmaning qaysi yo'nalishda rivojlanishini keskin o'zgartirishi mumkin. Masalan, bir xil dipikolinat ligand Co(II) bilan elektroximik faol MOF hosil qilsa, Cu(II) bilan sensor-biofaol monokomplekslar yoki kompozit materiallarga kirib boradi. Bu farq ligandning o'zida emas, markaziy ionning elektron tabiati va koordinatsion preferensiyalaridadir. Demak, 2,6-piridindikarbon kislotasi universal ligand bo'lsa-da, yakuniy xossani metall tanlaydi.







Quyidagi jadval adabiyotlarda ko‘proq uchraydigan 3d-metall dipikolinat tizimlarining umumlashtirilgan tavsifini beradi.

Metall ioni	Ligandning ustun koordinatsiyasi	Olishning ko‘p uchraydigan usuli	Kuzatilgan asosiy yo‘nalish	Izoh
Cr(III)	tridentat/oktaedrik	eritmada sintez, aralash ligand	kataliz, korroziya inhibitsiyasi	iamagn inertlik va yuqori barqarorlik muhim
Mn(II)	tridentat yoki supramolekulyar	eritmada kristallantirish	iamagne faollik, sitotoksiklik modellari	koordinatsion labililik sabab muhitga sezgir

Metall ioni	Ligandning ustun koordinatsiyasi	Olishning ko‘p uchraydigan usuli	Kuzatilgan asosiy yo‘nalish	Izoh
Fe(III)/Fe(II)	kelat/oktaedrik	eritmada komplekslashish	redoks, sirt kimyosi, korroziya	redoks-faollik va sirt bilan o‘zaro ta’sir ustun







Co(II)	ko'priksimon, polimerik	gidrotermal, sekin bug'latish	elektroximik sensor, MOF	tarmoqli tuzilma hosil qilish qobiliyati yuqori
Ni(II)	oktaedrik/ba'zan kvadrat-planar tendensiya	turli eritma usullari	strukturaviy va katalitik tadqiqotlar	alohida yo'nalish darajasiga yetgan tizim
Cu(II)	distorsiyalangan oktaedrik	eritmada yordamchi tizim	Hg(II) sensing, antimikrob, antioksidant	Jahn-Teller ta'siri va biofaollik bilan ajraladi
Zn(II)	iamagnet, polimer hosil qiluvchi	ultratovushli/gidrotermal, eritma usuli	antimikrob MOF, biomaterial	struktura va biomaslik nuqtai nazaridan qulay

Xulosa

Ba'zi 3d-metallarning 2,6-piridindikarbon kislotasi bilan hosil qiladigan kompleks birikmalari koordinatsion kimyoning nazariy va amaliy jihatdan eng mazmunli yo'nalishlaridan biri ekanligi tahlil davomida aniq ko'rindi. Ushbu ligandning asosiy ustunligi uning N,O,O-donor tabiatida, ya'ni u bir vaqtning o'zida xelatlovchi, ko'prik hosil qiluvchi va polimerlashtiruvchi vazifalarni bajara olishidadir. Aynan shu ko'p funksiyali koordinatsion xulq 3d-metallar bilan juda xilma-xil tuzilmalarni yuzaga keltiradi. Cr(III) va Fe(III) sistemalarida barqarorlik hamda sirt







himoyasi, Mn(II), Cu(II), Zn(II) sistemalarida biologik va sensor xossalar, Co(II) va ayrim Ni(II) sistemalarida esa materialshunoslik va katalizga yaqin funksiyalar kuchliroq namoyon bo'lishi kuzatildi. Bu holat bitta ligand turli metallarda turli "kimyoviy vazifa" bajarishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X. R. Tuxtayev, A. T. Sharipov, S. N. Aminov. Noorganik kimyo. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. O'zbek tilidagi darslik tavsifi va elektron nusxa ma'lumoti.
2. Kompleks birikmalar kimyosi. Jizzax davlat pedagogika universiteti o'quv dasturi, 2018.
3. Koordinatsion birikmalar kimyosi. Qo'qon davlat universiteti o'quv dasturi, 2025–2026 o'quv yili.
4. Umumiy va noorganik kimyo. Ziyonet elektron manbasi, koordinatsion birikmalar bo'limi.
5. Koordinatsion birikmalar kimyosining hozirgi zamon muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Buxoro, 2022.





MAVZU: KICHIK BIZNESNI MOLIYAVIY RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI

Baxromov Baxodir Otabek o‘g‘li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filali Davlat moliyasi yo‘nalishi 2-kurs magistranti


Annotatsiya: Maqolada kichik biznesni moliyaviy rag‘batlantirishning iqtisodiy mohiyati, uning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.


Аннотация: В данной статье рассматривается экономическая сущность финансового стимулирования малого бизнеса, его роль и значение в национальной экономике. Также анализируются современные механизмы поддержки малого бизнеса и пути повышения их эффективности.

Annotation: This article examines the economic essence of financial incentives for small businesses, their role and importance in the national economy. It also analyzes modern support mechanisms and ways to improve their effectiveness.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, moliyaviy rag‘batlantirish, iqtisodiy rivojlanish, kreditlash, subsidiyalar, investitsiya, tadbirkorlik.

Hozirgi zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, bandlik darajasini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va raqobat muhitini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu jihatdan, kichik biznesni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Kichik biznesning iqtisodiyotdagi o‘rni uning moslashuvchanligi, kam







kapital talab etishi va bozor kon'yunkturasiga tez javob bera olishi bilan belgilanadi. U nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratadi, balki aholi daromadlarini oshirish, o'rta sinfni shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, iqtisodiy inqirozlar va global beqarorlik sharoitida kichik biznes iqtisodiyotning "barqarorlashtiruvchi" segmenti sifatida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda ko'plab davlatlarda kichik biznesni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini samarali tashkil etishni talab qiladi. Moliyaviy rag'batlantirish vositalari — imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, grantlar, soliq imtiyozlari — kichik biznes subyektlarining faoliyatini kengaytirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va investitsion jozibadorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston sharoitida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, biznes yuritish muhitini yaxshilash va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Kichik biznesni rivojlantirish va uni moliyaviy rag'batlantirish iqtisodiy o'sishni jadallashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish — bu mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar hajmining ortib borishi bilan ifodalanadi va u ko'p jihatdan tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Yirik korxonalar ko'pincha murakkab boshqaruv tizimiga ega bo'lgani sababli yangilanish jarayoni sekin kechadi, kichik biznes esa qisqa vaqt ichida yangi mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish turini joriy eta oladi. Bu esa umumiy ishlab chiqarish hajmining oshishiga va iqtisodiy faollikning kuchayishiga olib keladi, kichik biznes subyektlarining ko'pligi bozor raqobatini kuchaytiradi. Bu jarayon mahsulot sifatini oshiradi, narxlarni barqarorlashtiradi, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Natijada, iqtisodiyotda samaradorlik oshadi va bu iqtisodiy o'sish sur'atlarining tezlashishiga xizmat qiladi.





To‘rtinchidan, kichik biznes investitsiyalarni jalb qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy rag‘batlantirish vositalari orqali:

- yangi biznes loyihalar paydo bo‘ladi;
- mavjud korxonalar kengayadi;
- ishlab chiqarish quvvatlari oshadi.

Innovatsiyalar yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi bozorlarni egallash imkonini beradi. Shu sababli kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotning innovatsion salohiyati ham oshadi.


Shuningdek, kichik biznes orqali ichki talab kengayadi. Aholining bandligi va daromadlari ortishi natijasida iste‘mol hajmi ko‘payadi, bu esa ishlab chiqarishning yana-da o‘shishiga turtki beradi. Bu jarayon iqtisodiyotda “multiplikativ effekt”ni yuzaga keltiradi, ya‘ni bir sohadagi o‘shish boshqa sohalarga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.


Kichik biznesni moliyaviy rag‘batlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshadi: ishlab chiqarish hajmini oshirish, raqobat muhitini kuchaytirish, investitsiyalarni jalb qilish, innovatsiyalarni rivojlantirish, ichki talabni kengaytirish.

Natijada, kichik biznes iqtisodiy o‘shishning nafaqat manbai, balki uning barqarorligini ta‘minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish aholi bandligini ta‘minlashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyotda aynan kichik biznes sektori yangi ish o‘rinlarini yaratishda yetakchi o‘rin egallaydi. Bu holat uning moslashuvchanligi, kam kapital talab qilishi va tez tashkil etilishi bilan izohlanadi.

Avvalo, kichik biznes subyektlari qisqa muddat ichida yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatiga ega. Yirik korxonalarga nisbatan kichik biznesni tashkil etish osonroq va kam mablag‘ talab qiladi. Shu sababli, aholining turli qatlamlari, jumladan yoshlar, ayollar va kam ta‘minlangan aholi vakillari ham tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishi mumkin. Bu esa umumiy bandlik darajasining oshishiga olib keladi.





Ikkinchidan, kichik biznes norasmiy bandlikni qisqartirishda muhim rol o'ynaydi. Ko'plab fuqarolar avval norasmiy sektorda faoliyat yuritgan bo'lsa, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali ular rasmiy iqtisodiyotga jalb etiladi.

Natijada, aholi migratsiyasi kamayadi va hududlarda iqtisodiy faollik oshadi.

Kichik biznes o'z-o'zini band qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ya'ni, fuqarolar yollanma ishchi bo'lishdan tashqari, mustaqil tadbirkor sifatida faoliyat yuritish imkoniga ega bo'ladi bu aholi daromadlarini oshiradi, kambag'allik darajasini kamaytiradi, o'rta sinf shakllanishiga xizmat qiladi.


Bu ayniqsa talabalar, uy bekalari va qo'shimcha daromad izlayotgan fuqarolar uchun muhimdir.


Shuningdek, kichik biznes orqali xizmat ko'rsatish sohasi kengayadi, bu esa zamonaviy iqtisodiyotda bandlikning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Savdo, transport, IT xizmatlari, turizm va maishiy xizmatlar kabi sohalarda kichik biznesning ulushi juda yuqori.

Xulosa

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy rag'batlantirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, aholi bandligini ta'minlash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari — imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar — kichik biznes subyektlarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash bilan birga, ularning investitsion va innovatsion faolligini oshiradi. Shu bilan birga, ushbu mexanizmlarning samaradorligi ularni to'g'ri tashkil etish, shaffoflikni ta'minlash va zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash bilan bevosita bog'liqdir.


Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni joriy etish moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqamlashtirish orqali moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayib, mablag'larni taqsimlash jarayonining ochiqligi va tezkorligi oshmoqda. Bu esa kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.






Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qarorlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik to‘plamlar*.
4. Abdug‘aniev A, Abdug‘aniev A. **Iqtisodiyot nazariyasi**. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
5. Yo‘ldoshev Q. **Bozor iqtisodiyoti asoslari**. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
6. Stiglitz J. E. **Economics of the Public Sector**. – New York: W.W. Norton & Company.





RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSIYALASHGAN MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH

Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar asosida integratsiyalashgan mashg'ulotlarni tashkil etish, ta'limda integratsiya kontseptsiyasi, raqamli texnologiyalarning pedagogik rollari hamda raqamli vositalarni tanlash, integratsiyalashgan vazifalar yaratish, integratsiyalashgan ta'limning asosiy modellarini tanlash va zamonaviy raqamli vositalarning pedagogik imkoniyatlari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Multidissiplinar (Ko'p tarmoqli), interdissiplinar (Fanlararo), transdissiplinar (Fanlar usti), Real Project-Based Learning (PBL), STEM va Robototexnika, Virtual Laboratoriyalar (Phet Simulations).


Аннотация: В данной статье подробно рассматривается организация интегрированных занятий на основе цифровых технологий, концепция интеграции в образовании, педагогическая роль цифровых технологий и выбор цифровых инструментов, создание интегрированных заданий, выбор базовых моделей интегрированного образования, а также педагогические возможности современных цифровых инструментов.


Ключевые слова: междисциплинарный, трансдисциплинарный, реальное проектное обучение (PBL), STEM и робототехника, виртуальные лаборатории (Phet Simulations).

Abstract: This article discusses in detail the organization of integrated classes based on digital technologies, the concept of integration in education, the pedagogical roles of digital technologies and the selection of digital tools, the creation of integrated tasks, the selection of basic models of integrated education, and the pedagogical capabilities of modern digital tools.

Keywords: Multidisciplinary, interdisciplinary, transdisciplinary, Real Project-Based Learning (PBL), STEM and Robotics, Virtual Laboratories (Phet Simulations).

Bugungi kunda ta'lim jarayoni tez sur'atlarda raqamlashib kelmoqda. Ana shunday rivojlanib kelayotgan davrda, ta'lim tizimiga raqamli texnologiyani joriy qilish va joriy qilingan raqamli texnologiya yoki axborot texnologiyalarni boshqa sohalar bilan hamda boshqa fanlar bilan integratsiya qilib, ta'lim tizimi olib borish bu biz pedagog kadrlarning zimmasida turadi. Raqamli texnologiyalar ta'limning mazmuni, shakli va usullarini qayta shakllantiradi hamda integratsiyalashgan yondashuv orqali o'quv jarayonini samaraliroq qiladi. Integratsiya bir necha fanlarni yoki sohalarni birlashtirish orqali ta'lim tarbiya olib borish bo'lib u, dunyoqarashni





kengaytiradi va real hayot muammolariga yechim topishga yo‘naltiradi. Shu munosabat bilan raqamli texnologiyalarni qadriyatlarga asoslangan, maqsadli, pedagogik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirilgan integratsiyalashgan mashg‘ulotlarni tashkil etish muhim vazifa hisoblanadi. Chunki biz bu orqali ta‘lim tizimida innovatsiya yaratamiz hamda ta‘lim tizimiga yangilik qo‘shamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida ta‘lim jarayoniga axborot texnologiyalarini chuqur tatbiq etish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Integratsiyalashgan mashg‘ulotlar — bu bir nechta fan sohalarini bitta g‘oya atrofida birlashtirish bo‘lib, raqamli vositalar ushbu jarayonni yanada qiziqarli va tushunarli qilishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-sonli „Maktabgacha ta‘lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmonida shunday deganlar: „Maktabgacha ta‘lim va umumiy o‘rta ta‘limning uzluksizligi va uzviyligini ta‘minlash, maktabgacha ta‘lim sifati va samaradorligini yanada oshirish, sohada faoliyat yuritayotgan xususiy sektor vakillarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim jarayoniga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ta‘lim sifatini yanda samarali qiladi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori „Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2021-yil 17-fevral PQ-4996-sonli qarorida “Raqamli O‘zbekiston — 2030” Strategiyasiga muvofiq hamda sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo‘llash, raqamli ma‘lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta‘minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, Axborot texnologiyalari sohasiga ixtisoslashgan xodimlar uchun axborot texnologiyalari va sun‘iy intellekt sohasida qayta tayyorlash va malaka oshirish o‘quv kurslarini tashkil etish hamda “Sun‘iy intellekt” ta‘lim yo‘nalishi fanlari bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlash eng asosiy vazifasi hisoblanadi.

Ta‘limda integratsiya kontseptsiyasi


Integratsiya – fanlararo o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish orqali bilimni chuqur o‘zlashtirish, o‘quvchilarning real hayot bilan bog‘lanishini ta‘minlash yondashuvi. STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) modeli integratsiyalashgan ta‘limning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, o‘quv jarayonini kontekstual, interaktiv qiladi.


Raqamli texnologiyalarning pedagogik rollari

Raqamli vositalar (masalan, onlayn platformalar, simulyatsiyalar, ta‘lim resurslari, virtual laboratoriyalar) o‘quv faolligini oshiradi, adaptiv o‘rganish imkonini beradi va murakkab kontseptsiyalarni vizual tarzda yetkazadi.

Raqamli texnologiyalar asosida integratsiyalashgan mashg‘ulotlar tashkil etish strategiyalari

Maqsadlarni belgilash





Maqsadlar ta'lim standartlari va o'quv natijalari bilan mos bo'lishi lozim. Har bir mashg'ulotda qaysi kompetensiyalar shakllantirilishi aniqlanadi.

Raqamli vositalarni tanlash

O'quv jarayonining maqsadi va mazmuniga mos texnologiyalar tanlanadi. Masalan:

- Interaktiv taxta va prezentatsiyalar;
- Onlayn test va baholash tizimlari;
- Virtual laboratoriyalar;
- Video va multimediya resurslar.

Integratsiyalashgan vazifalar yaratish

- Fanlararo bog'liqlikni ta'minlovchi vazifalar yaratiladi, misol uchun:
- Matematika hamda informatika asosidagi modellashtirish;
- Fizika va kimyo bo'yicha virtual eksperimentlar;
- Tarix va geografiya orqali katta ma'lumotlar tahlili.

O'quv faolligini qo'llab-quvvatlash

Raqamli platformalar orqali hamkorlik, baholash va fikr almashish muhitini yaratish. Masalan, Google Classroom, Moodle, Padlet va boshqa vositalar yordamida guruhli ishlash.

Integratsiyalashgan ta'limning asosiy modellarini tanlash

Raqamli muhitda integratsiyani amalga oshirishda o'qituvchi quyidagi uchta modeldan birini tanlashi mumkin:

Multidissiplinar (Ko'p tarmoqli): Bir mavzu turli fanlar nuqtai nazaridan o'rganiladi. Masalan, "Suv" mavzusi Kimyoda (tuzilishi), Geografiyada (gidrosfera) va Biologiyada (hayot manbai) raqamli xaritalar va simulyatsiyalar orqali tushuntiriladi.

Interdissiplinar (Fanlararo): Fanlar orasidagi chegaralar yo'qoladi va umumiy ko'nikmalar shakllantiriladi. Masalan, dasturlash (Informatika) orqali matematik funksiyalarni grafik ko'rinishga keltirish.

Transdissiplinar (Fanlar usti): Real hayotiy muammoni hal qilishga qaratiladi. Bu ko'pincha **Project-Based Learning (PBL)** ya'ni loyihaga asoslangan ta'lim orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy raqamli vositalarning pedagogik imkoniyatlari


Integratsiyalashgan darslarda samaradorlikni oshiruvchi texnologiyalar:


STEM va Robototexnika

STEM (Fan, Texnologiya, Muhandislik, Matematika) yondashuvi tabiatan integratsiyalashgan hisoblanadi.

Vositasi: Arduino yoki LEGO Mindstorms.

Virtual Laboratoriyalar (Phet Simulations)







Kimyo, fizika va biologiya darslarini integratsiya qilishda real laboratoriya yetishmagan hollarda **PhET** interaktiv simulyatsiyalari juda qo'l keladi. Bu orqali atom tuzilishini o'rganishda ham kimyoviy, ham fizik jarayonlarni bir vaqtda ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda raqamli texnologiyalar asosida integratsiyalashgan mashg'ulotlarni tashkil etish zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Bu yondashuv o'quv jarayonini samarali, interaktiv va kontekstual qiladi. Kelajakda o'qituvchilarning raqamli kompetentligini, pedagogik malakalarini oshirish va texnologik vositalarni metodik qo'llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Mirziyoyev Sh.M.** "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Farmon. 2020-yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni Toshkent, 2025. PF-152.
3. Sh.M.Baratova, „Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish" „Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini rivojlantirish: amaliyot va xorijiy tajrib" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Maqola, 2024 yil 23-24 may.
4. Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., & Baki, M. (2013). *The Effectiveness of Online and Blended Learning: A Meta-Analysis*. Teachers College Record.
5. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). *Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge*. Teachers College Record.
6. Voogt, J., & Knezek, G. (2008). *International Handbook of Information Technology in Primary and Secondary Education*. Springer
7. **Resnick, M. (2017)**. "Lifelong Kindergarten: Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play". MIT Press.





SONLI QATORLAR VA ULARNING MATEMATIK HAMDA IQTISODIY MODELLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI

Karasakalov Revkat Kenesovich - Termiz davlat pedagogika instituti “Matematika va Informatika” kafedrasida katta o’qituvchisi.

e-mail: revkatkarasakalov@gmail.com

ОПСИД: 0009-0004-5242-8217

Muxiddinova Iroda Azamat qizi - Termiz davlat pedadodika instituti Matematika yo’nalishi 2-kurs talabalasi.

e-mail: irodamixiddinova03@gmail.com

Musurmonova Durdona Bobomurodovna - Termiz davlat pedadodika instituti Matematika yo’nalishi 2-kurs talabalari


e-mail: urdonamusurmonova092@gmail.com


Termiz, O’zbekiston

Annotsiya: Ushbu maqolada matematik analiz fanining asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lgan sonli qatorlar nazariyasi keng yoritilgan. Sonli qator tushunchasi, uning qisman yig‘indilari va yaqinlashuv shartlari batafsil tahlil qilinadi. Qatorlarning yaqinlashuvini tekshirishda qo‘llaniladigan asosiy mezonlar, jumladan, zaruriy shart, geometrik qator, garmonik qator hamda p-qatorlarning xossalari izohlanadi.

Shuningdek, sonli qatorlar nazariyasining tarixiy rivojlanish bosqichlari va bu sohada faoliyat olib borgan mashhur matematik olimlarning ilmiy hissasi ko‘rib chiqiladi. Maqolada nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida qatorlarga oid ishlangan misollar keltirilgan.

Bundan tashqari, sonli qatorlarning iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishdagi ahamiyati ochib berilib, kredit foizlarini hisoblash, investitsiyalarni baholash, amortizatsiya jarayonlari va iqtisodiy prognozlashda ularning qo‘llanilishi yoritilgan. Maqola sonli qatorlarning nazariy va amaliy jihatdan muhim matematik vosita ekanligini asoslab beradi.







Kalit soʻzlar: Sonli qator, cheksiz qator, qisman yigʻindi, yaqinlashuvchi qator, uzoqlashuvchi qator, limit, geometrik qator, garmonik qator, p-qator, yaqinlashuv mezonlari, taqqoslash alomati, Dʼalamber alomati, , cheksiz yigʻindilar, funksional qatorlar, matematik modellashtirish, iqtisodiy modellar, murakkab foizlar, investitsiya tahlili, , moliyaviy hisob-kitoblar.

Kirish: Matematik analiz fanida sonli qatorlar nazariyasi muhim oʻrin egallaydi. Koʻplab matematik modellar cheksiz yigʻindilar yordamida ifodalanadi. Sonli qatorlar orqali murakkab jarayonlarni soddalashtirish, funksiyalarni taqribiy hisoblash va limit tushunchasini chuqurroq anglash mumkin. Bugungi kunda sonli qatorlar nafaqat matematika, balki fizika, texnika, statistika va iqtisod fanlarida ham keng qoʻllanilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy jarayonlarni matematik jihatdan ifodalash va kelajakdagi natijalarni prognozlashda sonli qatorlarning ahamiyati katta. Ushbu maqolada sonli qatorlarning nazariy asoslari va amaliy qoʻllanilishi yoritiladi.

Sonli qatorlar nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi matematik analiz fanining umumiy taraqqiyoti bilan chambarchas bogʻliqdir. Qatorlar tushunchasining dastlabki gʻoyalari qadimgi Sharq va Markaziy Osiyo allomalari tomonidan sonlarni yaqinlashtirib hisoblash usullari orqali bilvosita ishlab chiqilgan. Xususan, **Muhammad al-Xorazmiy** hisoblash algoritmlarini ishlab chiqib, ketma-ket yaqinlashtirish usullaridan foydalangan. **Abu Rayhon Beruniy** astronomik va geografik hisob-kitoblarda sonlarni taqribiy aniqlash masalalariga alohida eʼtibor qaratgan. **Mirzo Ulugʻbek** esa oʻzining astronomik jadvallarini tuzishda ketma-ket yaqinlashish usullaridan foydalangan boʻlib, bu usullar keyinchalik qatorlar nazariyasining shakllanishiga ilmiy zamin yaratgan. XVII asrga kelib, sonli qatorlar Yevropa matematiklari tomonidan mustaqil ilmiy yoʻnalish sifatida rivojlantirila boshlandi. **Isaak Nyuton** va **Gotfrid Vilgelm Leybnits** differensial va integral hisob asoslarini yaratib, funksiyalarni cheksiz qatorlar yordamida yoyish gʻoyasini taklif etdilar. Bu esa qatorlar yordamida murakkab funksiyalarni soddalashtirish imkonini berdi. XVIII asrda **Leonard Eyler** sonli qatorlar ustida keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, koʻplab mashhur qatorlarning yigʻindisini aniqladi hamda qatorlar nazariyasini alohida matematik boʻlim sifatida rivojlantirdi. **Dalamber** tomonidan ishlab chiqilgan yaqinlashuv alomati qatorlarning xossalarini tekshirishda muhim vositaga aylandi. XIX asrda **Ogysten Lui Koshi** qatorlar nazariyasiga qatʼiylik kiritib, limit tushunchasi asosida ularning yaqinlashuvini aniq matematik taʼrifladi. Keyinchalik **Raabe** va boshqa olimlar tomonidan taklif etilgan alomatlar qatorlarning yanada murakkab turlarini tekshirish imkonini berdi. Zamonaviy davrda esa sonli va funksional qatorlar matematik analizning ajralmas qismi sifatida rivojlanib, Oʻzbekiston matematiklari tomonidan ham funksiyalar nazariyasi, differensial tenglamalar va matematik modellashtirish doirasida faol tadqiq etib kelinmoqda. Shu tariqa, sonli qatorlar nazariyasi Sharq va Gʻarb ilmiy maktablarining uzviy rivoji natijasida shakllangan mukammal matematik yoʻnalish hisoblanadi.





Sonli qatorlar tarixiga oid ma'lumotlarni bilib oldik. Endi esa aslida sonli qator nima, u haqda ta'rif va teoremlar, va aynan shu mavzuga oid turli xil misollarni ishlanish usullarini ko'rib chiqamiz.

Faraz qilaylik, bizga $\{a\}$ sonli ketma-ketlik berilgan bo'lsin va sonli qatorga quyidagicha ta'rif beraylik.

Ta'rif. $a_1 + a_2 + a_3 + \dots + a_n + \dots$ yig'indiga sonli qator deyiladi. Bunda $\{a\}$ ketma-ketlikning hadlari berilgan qatorning hadlari deyiladi. Odatda qatorlar quyidagicha yoziladi: $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$.

Qatorning birinchi n -ta xadlar yig'indisi S_n orqali belgilanadi va **qism yig'indisi** deb ataladi va shu ko'rinishda yoziladi: $S_n = a_1 + a_2 + a_3 + \dots + a_n$

Misol tariqasida quyidagi sonli qatorni keltirsak, $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{n}{2n+1}$. Bu qatorni hadma-had yozib chiqsak,

$$\sum_{n=1}^{\infty} \frac{n}{2n+1} = \frac{1}{3} + \frac{2}{5} + \frac{3}{9} + \dots + n.$$

Agar qatorning S_n qism yig'indisi $n \rightarrow \infty$ da biror chekli qiymatga intilsa, bu holda berilgan **qator yaqinlashuvchi** deyiladi va shu ko'rinishda hisob kitob qilinadi,

$$\lim_{n \rightarrow \infty} S_n = S, \text{ S-sonli qator yig'indisi.}$$


Masalan, $b + bq + bq^2 + bq^3 + \dots + bq^{n-1} + \dots$ $|q| < 1$ qator geometric progressiya halaridan tashkil qilingan bo'lib, har doim **yaqinlashuvchi** va uning yig'indisi $S = \frac{b}{1-q}$ ga teng bo'ladi. Lekin quyidagi


$1 + \frac{1}{2} + \frac{1}{3} + \dots + \frac{1}{n} + \dots$ garmonik deb ataluvchi qator doim **uzoqlashuvchi** bo'ladi.

Endi esa yaqinlashuvchi sonli qatorlarning asosiy xossalari haqida keltirib o'tsak:

1. Agar $a_1 + a_2 + a_3 + \dots$ qator yaqinlashuvchi bo'lsa, bunda berilgan qatorning

m -ta hadni tashlab ketgan holda tashkil bo'lgan $a_{m+1} + a_{m+2} + a_{m+3} + \dots$ (m -qoldiq deb ataluvchi) qator ham yaqinlashuvchi bo'ladi. Aks holda m -qoldiq qator yaqinlashuvchiligidan berilgan qatorning yaqinlashuvchiligi kelib chiqadi.





2. Agar $a_1 + a_2 + a_3 + \dots$ qator yaqinlashuvchi bo'lsa va uning yig'indisi S ga teng bo'lsa, bu holda $ka_1 + ka_2 + ka_3 + \dots$ qator ham yaqinlashuvchi bo'ladi va uning yig'indisi kS ga teng bo'ladi. $k=0$ 'zgarmas son

3. Agar $a_1 + a_2 + a_3 + \dots$, va $b_1 + b_2 + b_3 + \dots$ qatorlar yaqinlashuvchi bo'lib, ular yig'indilar mos ravishda S va S' ga teng bo'lsa, bu holda $(a_1 + b_1) + (a_2 + b_2) + (a_3 + b_3) + \dots$ qator ham yaqinlashuvchi bo'ladi va $S + S'$ ga teng bo'ladi.

4. (yaqinlashuvchi qatorlarning zaruriy sharti) Agar $a_1 + a_2 + a_3 + \dots a_n + \dots$ qator yaqinlashuvchi bo'lsa, bu holda $\lim_{n \rightarrow \infty} a_n = 0$. Bundan shunday xulosa chiqadiki, agar

$\lim_{n \rightarrow \infty} a_n \neq 0$ bo'lsa, berilgan qator uzoqlashuvchi bo'ladi.

Sonli qatorlarimiz 2 xil xadli bo'lishi mumkin, ya'ni musbat va ishora almashinuvchi hadlar ko'rinishida. Avval biz musbat hadli, keyin esa manfiy had ko'rinishida sonli qatorlarning yaqinlashish va uzoqlashish alomatlarini va ularni qaytarzda yechimini topishni ko'rib chiqamiz.

Musbat hadli qatorlarning yaqinlashish va uzoqlashish alomatlari.

Taqqoslashish alomatining birinchi belgisi.

$a_1 + a_2 + a_3 + \dots$ (1) va $b_1 + b_2 + b_3 + \dots$ (2) qatorlar berilgan bo'lsin, va $a_n \leq b_n$


($n=1,2,3,\dots$). Bunda agar (2) qator *yaqinlashuvchi* bo'lsa, bu holda (1) qator ham *yaqinlashadi*, aks holda (2) qator *uzoqlashuvchi* bo'lsa bu holda (1) qator ham *uzoqlashuvchi* bo'ladi.


Taqqoslash alomatining ikkinchi belgisi.

Agar chekli va noldan farqli $\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_n}{b_n} = k$ mavjud bo'lsa u holda $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ va $\sum_{n=1}^{\infty} b_n$ qatorlar bir vaqtda yaqinlashadi, yoki bir vaqtda uzoqlashadi.

Musbat hadli sonli qatorlarning uzoqlashish yoki yaqinlashishini tekshirish uchun bir necha olimlar turli xil qonun-qoidalarga asoslangan alomatlarni keltirib o'tgan. Shu alomatlarni keltirib o'tsak.

Dalamber alomati. Agar berilgan $a_1 + a_2 + a_3 + \dots a_n + \dots$ qator uchun $\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{n+1}}{a_n} = k$





mavjud bo'lsa, bu holda

1) $k > 1$ da qator yaqinlashuvchi

2) $k < 1$ da qator uzoqlashuvchi bo'ladi

3) $k=1$ da qator yaqinlashuvchi yoki uzoqlashuvchi ekanligini aniqlash uchun qo'shimcha izlanish kerak.

Koshi alomati. Agar berilgan $a_1 + a_2 + a_3 + \dots + a_n + \dots$

qator uchun $\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{a_n} = k$ mavjud bo'lsa, bu holda

1) $k > 1$ da qator yaqinlashuvchi

2) $k < 1$ da qator uzoqlashuvchi bo'ladi

3) $k=1$ da qator yaqinlashuvchi yoki uzoqlashuvchi ekanligini aniqlash uchun qo'shimcha izlanish kerak.

Integral alomati. Agar $f(x)$, $x \geq 1$ bo'lganda musbat, uzluksiz va monoton kamayuvchi funksiya

bo'lsa, bu holda $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qator *yaqinlashuvchi* yoki *uzoqlashuvchi* bo'ladi, agar mos ravishda $\int_N^{\infty} f(x) dx$

(bunda $N \geq 1$ va $a_n = f(x)$)

integral *yaqinlashuvchi* yoki *uzoqlashuvchi* bo'ladi.

Ishora almashinuvchi sonli qatorlarning yaqinlashish va uzoqlashish


alomatlari.


Ta'rif. Agar sonli qator hadlarining ishoralari navbatma –navbat almashib boradigan bo'lsa, ya'ni musbat va manfiy hadlar ketma-ket keladigan bo'lsa, bunday qator **ishora almashinuvchi sonli**

qator deyiladi. Bu qatorning umumiy ko'rinishi: $\sum_{n=1}^{\infty} (-1)^{n-1} a_n$ $a_n \geq 0$, yoki

$$a_1 - a_2 + a_3 - a_4 + \dots$$

Bu yerda a_n - musbat sonlar ketma – ketligi.





Leybnis alomati. Agar a_n - musbat va kamayuvchi ketma –ketlik bo’lsa:

1. $|a_1| \geq |a_2| \geq |a_3| \geq |a_4| \dots$
2. $\lim_{n \rightarrow \infty} a_n = 0$

